



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II - QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna Atoev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIKLARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODELI	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	



HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIKLARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISH BERUVCHI-DAROMAD" MODELI

Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich
G.V. Plekhanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universitetining Toshkent filiali mustaqil izlanuvchisi
E-mail: info@reu.uz

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston hududlarida yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratishning hududiy differensiallashgan modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi hududning resursi yoki mavjud tarmog'ini o'z-o'zidan ustunlik deb qabul qilmasdan, uni kasb, ish beruvchi va qiymat zanjiri orqali aholi daromadiga aylantirish mexanizmini asoslashdan iborat. Strukturaviy-dinamik, qiyosiy, tipologik va tizimli tahlil usullari qo'llanildi. 2020–2025-yillarda yalpi ichki mahsulot va ish haqining o'sishi, 2025-yildagi tarmoq hamda hududiy tuzilma, kichik tadbirkorlik va turizm ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Natijada "hudud-ixtisoslashuv-kasb-ish beruvchi-daromad" zanjiri, hududiy daromad samarasi formulasi va yuqori daromadli ish o'rni pasporti taklif etildi. Yuqori daromadlilikni mamlakat bo'yicha yagona nominal chegarada emas, hudud o'rtacha ish haqining 1,2–1,5 baravari yoki oilaning o'rtacha jon boshiga daromadidan yuqori barqaror mehnat natijasi orqali baholash tavsiya qilindi. Model hududiy siyosat, investitsiya loyihalari, kasbiy tayyorlash va mahalla ixtisoslashuvini yagona natija – barqaror daromad bilan bog'laydi.

Kalit so'zlar: hududiy rivojlanish, qiyosiy ustunlik, yuqori daromadli ish o'rni, qiymat zanjiri, mahalla ixtisoslashuvi, kasbiy tayyorlash, kichik biznes, aholi daromadi

Abstract. The paper develops a territorially differentiated model for creating high-income jobs across Uzbekistan's regions. It links territorial assets to economic specialisation, occupations, employers and measurable income outcomes through the sequence "territory–specialisation–occupation–employer–income". Structural and comparative analysis of 2020–2025 data is used to formulate a territorial income-effect measure and a high-income job passport. Rather than applying one national nominal threshold, a job is proposed to be classified as high-income when earnings reach 1.2–1.5 times the regional average wage or generate a sustained family-income gain above regional per-capita income. The model integrates regional development, value chains, vocational training, investment projects and mahalla specialisation.

Keywords: regional development, comparative advantage, high-income job, value chain, mahalla specialisation, vocational training, household income

Аннотация. Разработана территориально дифференцированная модель создания высокодоходных рабочих мест в регионах Узбекистана. Модель связывает ресурсный потенциал территории с экономической специализацией, востребованной профессией, конкретным работодателем и измеримым доходным результатом. На основе данных 2020–2025 годов предложены формула территориального эффекта дохода, паспорт высокодоходного рабочего места и относительный критерий доходности — 1,2–1,5 средней заработной платы региона либо устойчивое превышение среднедушевого дохода. Практическая ценность модели состоит в объединении региональной политики, инвестиционных проектов, профессиональной подготовки и специализации махаллей.

Ключевые слова: региональное развитие, сравнительное преимущество, высокодоходное рабочее место, цепочка стоимости, специализация махалли, доход населения



KIRISH

Yuqori iqtisodiy o'sish aholi farovonligiga avtomatik ravishda aylanmaydi. Uning ijtimoiy natijasi yaratilgan ish o'rinlarining tarmoq, texnologiya, daromad va barqarorlik xususiyatlariga bog'liq. Past unumdorlikdagi xomashyo faoliyati yoki mavsumiy xizmatlar ish bilan bandlikni kengaytirishi mumkin, biroq oilaning kambag'allik xavfini doimiy kamaytirmaydi. Shu sababli hududiy siyosat "nechta ish o'rni yaratildi?" savoli bilan birga "ushbu ish o'rni qaysi qiymat zanjirida va qancha barqaror daromad yaratdi?" savoliga javob berishi kerak.

O'zbekiston hududlari iqtisodiy tuzilma, resurs, demografik bosim, sanoat bazasi, turizm salohiyati, logistika va tadbirkorlik an'analari bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi. Bir xil subsidiya yoki o'qitish dasturini barcha hududlarda qo'llash mahalliy xususiyatlarni to'liq hisobga olmasligi va ishchi kuchi bilan ish o'rinlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni kuchaytirishi mumkin. Hududiy qiyosiy ustunlikni aniqlash esa faqat mavjud xomashyo yoki tarmoq ulushini qayd etish emas, balki uni yuqori qo'shilgan qiymat, kasb va ish beruvchi orqali daromadga aylantirishni anglatadi.

Maqolaning maqsadi yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratishning "hudud-ixtisoslashuv-kasb-ish beruvchi-daromad" modelini ilmiy asoslash va O'zbekiston sharoitida joriy etish algoritmini ishlab chiqishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Hududiy qiyosiy ustunlik nazariyasi iqtisodiy faoliyatning makondagi taqsimlanishini resurslar, bozor yaqinligi, infratuzilma, bilim va klasterlashuv bilan izohlaydi [1; 2]. Zamonaviy yondashuvda ustunlik berilgan va o'zgaras holat emas: u ta'lim, texnologiya, logistika, institut va korxonalar kooperatsiyasi yordamida yaratiladi. Demak, hududdagi tabiiy yoki tarixiy resurs faqat qiymat zanjiriga qo'shilgandagina mehnat daromadining manbaiga aylanadi.

Inson kapitali nazariyasi daromadning malaka, tajriba va unumdorlik bilan bog'liqligini asoslaydi [3; 4]. Mehnat iqtisodiyotida ish o'rni yuqori daromadli bo'lishi uchun xodimning malakasi bilan birga korxonaning texnologiyasi, boshqaruvi va bozor pozitsiyasi ham muhim [5]. Kichik va o'rta biznes hududiy ish o'rinlarining katta qismini yaratadi, biroq ularning unumdorligi va rasmiyligi turlicha bo'ladi [6]. Shu bois kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mezonini ro'yxatdan o'tgan subyektlar soni emas, mahalliy qiymat zanjiri va ish haqi fondining o'sishi bo'lishi kerak.

O'zbekiston bo'yicha kasbiy ta'lim tadqiqotlari ish beruvchilar talabiga yaqinlashish, amaliy o'qitish va hududiy kadrlar ehtiyojini prognozlash zarurligini ko'rsatadi [7; 8]. Milliy rivojlanish siyosatidagi hududiy va mahalla yondashuvi yuqori daromadli ish o'rinlarini mahalliy loyihalar, rasmiylashtirish va kambag'allikni qisqartirish bilan bog'lash uchun institutsional asos yaratadi [9; 10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda 2020–2025-yillar makroiqtisodiy dinamikasi, 2025-yil tarmoq va hududiy tuzilmasi, kichik tadbirkorlik hamda turizm ko'rsatkichlari strukturaviy-dinamik va qiyosiy usulda tahlil qilindi. Hududlar iqtisodiy profiliga ko'ra agrar, sanoat, xizmat, logistika, turizm, hunarmandchilik va raqamli-ta'lim salohiyatli turlarga ajratildi. Tipologiya qat'iy reyting emas; bitta hudud bir nechta ustunlikka ega bo'lishi mumkin.

Modelning asosiy metodologik sharti – "resurs" va "yuqori daromadli ish o'rni" o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri tenglik yo'qligidir. Oraliq bo'g'inlar sifatida qayta ishlash, saqlash, logistika, sifat nazorati, dizayn, marketing, raqamli savdo, servis va malakali mehnat hisobga olinadi. Yuqori daromadlilik hududiy nisbiy mezon bilan baholanadi, chunki bir xil nominal ish haqi Toshkent shahri va daromadi pastroq hududda turlicha iqtisodiy mazmunga ega.

Hududiy daromad samarasi quyidagi diagnostik ifoda orqali baholanishi mumkin: $HDS = \Delta IH + \Delta TD + \Delta OD + \Delta ST - (QT + O'Q)$, bunda ΔIH – yollanma xodimlar ish haqi fondining o'sishi; ΔTD – tadbirkor va o'zini o'zi ish bilan band qilganlar mehnat daromadining o'sishi; ΔOD – loyihaga jalb qilingan oilalar daromadining o'sishi; ΔST – mahalliy soliq tushumining o'sishi; QT – davlat qo'llab-quvvatlashi xarajatlari; $O'Q$ – o'qitish va qayta tayyorlash xarajatlari. Ifoda sababiy baho emas, hududiy loyiha natijasini xarajat bilan solishtirish uchun boshqaruv ko'rsatkichidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

2020–2025-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotining nominal hajmi va o'rtacha ish haqi tez o'sdi. Ushbu dinamika yuqori daromadli ish o'rinlari uchun kengayayotgan iqtisodiy bazani ko'rsatadi, biroq tarmoq va hududlar bo'yicha unumdorlik tafovuti sababli o'sishning mehnat natijasi bir xil emas (1-jadval).




1-jadval

Yuqori daromadli ish o'rinlari uchun makroiqtisodiy baza, 2020–2025-yillar¹

Yil	YAIM, trln so'm	Real o'sish, %	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	Asosiy talqin
2020	705,1	1,9	2 673,3	Pandemiya sharoitida daromad va ish o'ri barqarorligi zaiflashgan
2021	861,2	7,4	3 214,8	Tiklanish va mehnat talabining jonlanishi
2022	1 041,9	5,7	3 882,2	Daromad o'sishi, narx va tarmoq tafovutlari
2023	1 261,8	6,3	4 561,9	Xizmatlar va sanoat faolligining kengayishi
2024	1 535,4	6,5	5 360,9	Investitsiya va tadbirkorlik bazasining kuchayishi
2025	1 849,7	7,7	6 376,7	Hududiy yuqori daromadli ish o'rinlarini kengaytirish imkoniyati

1-jadvalda keltirilgan makroiqtisodiy tendensiyalar yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish uchun umumiy iqtisodiy imkoniyatlar kengayayotganini ko'rsatadi. Biroq ushbu imkoniyatlarni hududiy daromad natijasiga aylantirish hududning ixtisoslashuvi, talab etiladigan kasblar va aniq ish beruvchilar o'rtasidagi izchil bog'liqlikni talab etadi (1-rasm).



1-rasm. «Hudud–ixtisoslashuv–kasb–ish beruvchi–daromad» modelining mantiqiy tuzilishi²

Modelning birinchi bo'g'ini – hudud – resurs, infratuzilma, mehnat an'anasi va bozor yaqinligini tavsiflaydi. Ikkinchi bo'g'in ixtisoslashuv – qaysi faoliyatda qiymat zanjirini chuqurlashtirish mumkinligini belgilaydi. Uchinchi bo'g'in kasb – ushbu faoliyat uchun zarur mehnat funksiyasi va malakani aniqlaydi. To'rtinchi bo'g'in ish beruvchi – texnologiya, ishlab chiqarish muhiti va rasmiy ish o'rnini ta'minlaydi. Beshinchi bo'g'in daromad – butun siyosatning yakuniy o'lchovidir.

2025-yilda YAIM tarkibida xizmatlar 48,6 %, sanoat 26,8 %, qurilish 7,3 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 17,3 % ni tashkil etgan. Bu nisbat yuqori daromadli ish bilan bandlik manbasi faqat sanoat ekanini anglatmaydi. Axborot texnologiyalari, logistika, tibbiyot, ta'lim, moliyaviy va professional xizmatlar ham yuqori qo'shilgan qiymat yaratishi mumkin. Agrar hududlarda esa daromad birlamchi yetishtirishdan ko'ra qayta ishlash, saqlash, qadoqlash, sovuq logistika va eksportga tayyorlash bosqichlarida tezroq oshadi.

Hududiy tuzilma modelni differensiallashtirish zarurligini tasdiqlaydi. 2025-yilda Jizzax viloyatida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 39,5 %, Surxondaryoda 37,4 % bo'lgan. Navoiy viloyatida sanoat ulushi 76,0 %, Toshkent viloyatida 44,2 %; Toshkent shahrida xizmatlar 63,1 %, Qoraqalpog'iston Respublikasida 49,5 % ni tashkil etgan. Demak, kasbiy buyurtma va ish o'ri turi hududning real iqtisodiy profilidan kelib chiqishi kerak (2-jadval).

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari va muallif ishlanmasi.

² Manba: Muallif ishlanmasi.



2-jadval

Hududiy ustunlikni yuqori daromadli ish o'rniga aylantirish matritsasi³

Hududiy profil	Qiymat zanjirini kengaytirish	Ustuvor kasblar	Daromad mexanizmi
Agrar va qishloq hududi	Saralash, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash, agrologistika, eksport	Texnolog, sovutish operatori, veterinar, sifat nazoratchisi, logist	Xomashyo narxidan qayta ishlangan mahsulot marjasiga o'tish
Sanoat hududi	Mahalliy kooperatsiya, uskuna servisi, energiya samaradorligi, lokallashtirish	Muhandis, mexanik, elektromontyor, payvandchi, CNC operatori	Unumdorlik, texnologik xizmat va yuqori malaka ustamasi
Xizmat va shahar aglomeratsiyasi	IT, moliya, tibbiyot, ta'lim, professional va logistika xizmatlari	Dasturchi, tahlilchi, tibbiy mutaxassis, logist, loyiha menejeri	Bilim sig'imi va eksport qilinadigan xizmatlar
Turizm va madaniy hudud	Joylashtirish, ovqatlanish, transport, hunarmandchilik, ekskursiya, raqamli savdo	Gid, mehmonxona xodimi, oshpaz, dizayner, SMM mutaxassisi	Bir turist xarajatining mahalliy zanjirda ko'proq qolishi
Logistika va chegara hududi	Ombor, tashish, ta'mir, bojxona servisi, elektron savdo	Haydovchi, ombor operatori, broker, mexanik, logist	Tovar oqimiga qo'shilgan xizmat qiymati
Hunarmand va mahalla klasteri	Dizayn, standart, brend, kooperatsiya, elektron savdo	Usta, dizayner, qadoqlovchi, sotuv va eksport mutaxassisi	Yakka faoliyatdan mikrokorxona va kooperatsiya daromadiga o'tish

Kichik tadbirkorlik modelning mahalla va tuman darajasidagi asosiy tashuvchisidir. 2025-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari yaratgan mahsulot va xizmatlar hajmi 923,5 trln so'mga, YAIMdagi ulushi 52,2 % ga yetgan. Ularning qishloq xo'jaligidagi ulushi 93,1 %, qurilishda 75,6 %, xizmatlarda 47,2 %, sanoatda 28,5 % bo'lgan. Biroq yuqori ulush har doim ham yuqori unumdorlikni anglatmaydi.; moliyaviy yordam texnologiya, bozor, rasmiy yollanma ish o'rni va ish haqi o'sishi bilan shartlanishi kerak.

Turizm hududiy zanjirining amaliy misolidir. 2025-yilda O'zbekistonga turistik maqsadda 11,7 mln xorijiy fuqaro tashrif buyurgan, bu oldingi yilga nisbatan 46,8 % ko'p. Agar turist xarajati transport, mehmon uyi, ovqatlanish, hunarmandchilik, ekskursiya va mahalliy mahsulot sotuviga tarqalsa, bitta tashrif bir nechta daromadli ish o'rnini qo'llab-quvvatlaydi. Mahalliy aholi zanjirga kirmasa, turist oqimi o'sishi hududiy mehnat daromadiga to'liq aylanmaydi (3-jadval).

3-jadval

Yuqori daromadli ish o'rnini pasporti⁴

Pasport bo'limi	Majburiy ko'rsatkich	Tavsiya etiladigan mezon
Hududiy asos	Ixtisoslashuv va qiyosiy ustunlik dalili	Resurs, bozor, infratuzilma va qiymat zanjiri bilan tasdiqlangan
Ish o'rnini	Rasmiy maqom, shartnoma, bandlik davomiyligi	Kamida 12 oylik yoki barqaror mavsumiy sikl
Daromad	Ish haqi va oilaning mehnat daromadi	Hudud o'rtacha ish haqining 1,2–1,5 baravari yoki hududdagi aholi jon boshiga o'rtacha daromaddan yuqori barqaror natija
Unumdorlik	Bir xodimga mahsulot/xizmat, texnologik yangilanish	Tarmoq yoki loyiha bazaviy darajasidan o'sish
Malaka	Kasb standarti, sertifikat, amaliy ko'nikma	Ish funksiyasiga to'liq yoki yuqori darajada mos
Mahalliy ta'sir	Mahalliy xodim, kooperatsiya, xarid va soliq	Daromadning hudud ichida ko'paytiruvchi ta'siri
Ijtimoiy sifat	Xavfsizlik, ijtimoiy ajratma, kasbiy o'sish	Mehnat huquqlari va o'qitish imkoniyati mavjud

Taklif etilgan 1,2–1,5 koeffitsiyent normativ yakun emas, hududiy siyosat uchun sinov mezonidir. Uni kasb, tarmoq, yashash xarajati, mehnat unumdorligi va daromad taqsimoti bo'yicha ekspert hamda empirik tekshiruvdan o'tkazish zarur. Hudud o'rtacha ish haqi juda past bo'lgan joyda faqat koeffitsiyentning o'zi munosib daromadni kafolatlamasligi mumkin; shuning uchun oilaning real daromadi va kambag'allik chegarasidan chiqish barqarorligi ham qo'shimcha mezon sifatida qo'llanadi.

³ Manba: Muallif tomonidan hududiy qiyosiy ustunlik va qiymat zanjiri yondashuvi asosida ishlab chiqilgan.

⁴ Manba: muallif ishlanmasi.



Model hududlarni bitta ixtisoslashuvga qamab qo'ymasligi kerak. Qiyosiy ustunlik muntazam qayta baholanadi: iqlim, texnologiya, transport yo'lagi, bozor talabi va inson kapitali o'zgargani sayin yangi faoliyatlar paydo bo'ladi. Davlat siyosatida alohida tarmoqlarni ma'muriy tarzda ustuvor deb belgilashdan ko'ra, axborot, infratuzilma, ko'nikma, standart, moliya va kooperatsiya bilan bog'liq to'siqlarni kamaytirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Faqat ish o'rinlari soniga asoslangan ko'rsatkich ayrim hollarda baholash natijalarini bir tomonlama shakllantirishi mumkin. Masalan, ko'p sonli past haq to'lanadigan vaqtinchalik ishlar bir nechta yuqori unumdor va rasmiy ish o'rnidan statistik jihatdan ustun ko'rinadi. Shu sababli hududiy loyiha pasportida ish o'rni soni bilan bir qatorda ish haqi fondi, 12 oylik saqlanish, mahalliy qiymat zanjiri, o'qitish natijasi va HDS ko'rsatkichi keltirilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqori daromadli ish o'rni hududda mavjud resursning tabiiy natijasi emas. U resursning qiymat zanjiriga ulanishi, talab etiladigan kasbning shakllanishi, ish beruvchining texnologik va tashkiliy imkoniyati hamda daromad natijasining barqarorligi orqali yaratiladi. "Hudud-ixtisoslashuv-kasb-ish beruvchi-daromad" modeli ushbu oraliq bo'g'inlarni aniq ko'rsatadi va hududiy rejalashtirishni umumiy subsidiya taqsimotidan natijaga yo'naltirilgan loyiha boshqaruviga o'tkazadi.

Amaliy joriy etish uchun har bir tuman va mahalla bo'yicha qiyosiy ustunlik diagnostikasi, qiymat zanjiri xaritasi, kasbiy buyurtma, potensial ish beruvchilar reyestri va yuqori daromadli ish o'rni pasportini ishlab chiqish taklif etiladi. Investitsiya va tadbirkorlik qo'llab-quvvatlashi rasmiy ish o'rni, hududiy o'rtachadan yuqori daromad, xodimni 12 oy saqlash, mahalliy kooperatsiya va o'qitish natijasi bilan shartlanishi kerak. Pilot baholashda sanoat, agrar, turizm va xizmat profilli hududlar qamrab olinishi, natijalar HDS hamda oilalar daromadining o'zgarishi orqali tekshirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. — New York : Free Press, 1990.
2. Krugman P. *Geography and Trade*. — Cambridge, MA : MIT Press, 1991.
3. Schultz T. W. Investment in Human Capital // *The American Economic Review*. — 1961. — Vol. 51, No. 1. — P. 1–17.
4. Becker G. S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. — Chicago : University of Chicago Press, 1964.
5. Criscuolo C., Gal P., Freund L. B. Human Capital at Work: Five Facts about the Role of Skills for Firm Productivity, Growth, and Wage Inequality // *OECD Productivity Working Papers*. — Paris : OECD Publishing, 2024. — No. 36. — DOI: 10.1787/486c0289-en.
6. International Labour Organization. *Small Matters: Global Evidence on the Contribution to Employment by the Self-employed, Micro-enterprises and SMEs*. — Geneva : International Labour Office, 2019. — 48 p. — ISBN 978-92-2-133991-5.
7. Asian Development Bank. *Skills Development in Uzbekistan: A Sector Assessment*. — Manila : Asian Development Bank, 2022.
8. World Bank. *The Road Home and Abroad: Enhancing TVET for Youth and Migration in Uzbekistan*. — Washington, DC : World Bank, 2025. — DOI: 10.1596/43532.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoni [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-7675184> (murojaat sanasi: 18.07.2026).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2026-yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o'rinlarini yaratish hamda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2026-yil 5-fevraldagi PQ-49-son qarori [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-8038302> (murojaat sanasi: 18.07.2026).
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2025-yil yanvar-dekabr)* [Elektron resurs]. — Toshkent, 2026. — URL: <https://stat.uz/img/news/talil-2025-jil-yanvar-dekabr-lotin-p29731.pdf> (murojaat sanasi: 18.07.2026).
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2025-yilda O'zbekistonga 11,7 million nafar turist kelgan [Elektron resurs]. — 2026. — 16-yanvar. — URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mitayangiliklar/66309-2025-jilda-zbekistonga-11-7-million-nafar-turist-kelgan-2> (murojaat sanasi: 18.07.2026).



13. OECD. *OECD Skills Outlook 2023: Skills for a Resilient Green and Digital Transition*. — Paris : OECD Publishing, 2023. — 271 p. — DOI: 10.1787/27452f29-en.
14. Абдурахманов К. Х. Стратегия развития рынка труда: зелёная трансформация и искусственный интеллект // *Лидерство и менеджмент*. — 2026. — Т. 13, № 3. — С. 403–424. — DOI: 10.18334/lim.13.3.124610.
15. International Labour Organization. *Decent Work and the 2030 Agenda for Sustainable Development* [Elektron resurs]. — Geneva : ILO, [s. a.]. — URL: <https://www.ilo.org/topics-and-sectors/decent-work-and-2030-agenda-sustainable-development> (murojaat sanasi: 18.07.2026).
16. North D. C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. — Cambridge : Cambridge University Press, 1990.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>